



“MUSTABID SOVET TUZUMI SHAROITIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA TARIXIY TAHLIL”

Xudayberdiyeva Gulnora Xursandovna

TerDU t.f.f.d. (PhD)

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18016056>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil

Ma’qullandi: 18-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 22-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

mustabid sovet tuzumi, O‘zbekiston madaniyati, Surxondaryo viloyati, madaniy siyosat, milliy qadriyatlar, mafkuraviy bosim, madaniy-ma’rifiy muassasalar, sovet davri

ABSTRACT

Mazkur maqolada mustabid sovet tuzumi davrida O‘zbekiston madaniyatida yuz bergan o‘zgarishlar, mafkuraviy bosim va cheklovlar Surxondaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyati, milliy qadriyatlarning siqib chiqarilishi, xalq an’analari va urf-odatlariga bo‘lgan munosabat tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, sovet davrida hududiy madaniyat rivojining o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

O‘zbekiston davlati tarixiy asosan uch davrga bo‘linadi, ya’ni birinchi davri Turkiston ASSR (1918-1924), ikkinchi davr Sovet Ittifoqi Respublikasi (1924-1991) va uchinchi davr (1991-yildan) O‘zbekiston mustaqil davlati. Biz bu maqolada asosan O‘zbekiston davlatining ikkinchi davri madaniy-ma’rifiy jarayon haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Demak O‘zbekiston davlati 1924-yil 27-oktyabrda tuzildi. Shu yilning 5-dekabrda Respublika deb e’lon qilindi. SSSR Sovetlarining III sezgining 1925-yil 13-maydagi Dekretida O‘zSSRda SSR Ittifoqini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va bu xabar keng yoyildi. O‘zbekiston albatta davlat sifatida tashkil topdi-yu, lekin mustaqil davlat emasdi. Rossiya imperiyasi davridagidek O‘zbekiston mustamlaka davlat bo‘lib qolaverdi.

Hukmron Sovet davlati madaniy sohaga partiyaviylik va sinfiylik qolibida yondoshdir. Butun mustamlaka mamlakatga marksizm-leninizm g‘oyalarini singdirish va bu g‘oyalar asosida sotsialistik madaniyat, ma’rifatni yaratish oliy maqsad edi. Sovet davlati o‘zlarining bu oliy maqsadidan kelib chiqib madaniyat uylari, madaniyat bog‘lari, teatrlar, klublar, maktablar, kutubxonalar, teatrlar, saroylar, kinoteatrlar, artellar kabilar yarata boshladi. Albatta bu tashabbuslarda kommunistik partiyaning roli katta bo‘lib, faoliyatida siyosiy mafkurani xalq ommasi ongiga singdirishga qaratdi. 1920-yillarda amalga oshirilgan tadbirlar haqida ko‘plab asarlarda yoritildi va bu asarlarning barchasida O‘zbekistonda sotsializmning g‘alaba qilganligi, o‘zbek xalqining buyuk yutuqlari ekanligi haqida ko‘klarga ko‘tarib baho berildi. Chunki bu davr taqozosi ham edi.

1920-yillarda mahalliy xalq orasida norozilik kayfiyati vujudga keldi. Milliy masalalar sun’iy ravishda bo‘rttirib yuborildi. 1920-yillarda turkiyzaabon xalqlar yagona bo‘lib, ularning madaniyati, an’analari, dinlari va tarixiy ildizlari mushtarakdir. Ularni ajratib bo‘lmaydi degan

g'oya ilgari surilgandi. Bu g'oyani markaz rad etgandi va panislomizm, panturkizm va burjua millatchiligi deb baholagandi.

Sovet mustabid tuzumi davrida hukmron bo'lgan kommunistik mafkura barcha usul va vositalar bilan milliy madaniyatlar ravnaqiga kuchli ta'sir etdi. Ma'naviyatning millat taraqqiyotidagi o'rni va rolini yo'qqa chiqarishga harakat qildi [1. 4].

Sovet tuzumi davrida madaniyatimiz g'arbona tusda rivojlangandi. Bu albatta milliyligimizga ta'siri kuchli edi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy sohada ijobiy jihatlarga ham erishgandi, albatta buni inkor eta olmaymiz.

O'zbekiston ma'naviy-siyosiy hayotida madaniy-ma'rifiy muassasalarning eng sinalgan shakli sifatida klub muassasalari ochilib, ularning faoliyati siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'rifiy, mafkuraviy masalalarni hal qilishga yo'naltirildi. O'zbekistonda birinchi klublar 1918-yil Toshkent (Turkiston xalq universiteti huzurida) va Samarqand (Qo'shhovuz mahallasidagi musulmon klubi)da ochildi. 1920-yillarda maxsus madaniy - ma'rifiy muassasalar (klub, xalq uyi, qizil choyxona, qiroatxona va boshqalar) tizimi «mehnatkashlarning kommunistik tarbiyasi» va Xalq ma'rifatining asosiy vositalaridan biri sifatida xalq maorif komissarligi tarkibida tashkil topgan. 1924-yili klub muassasalari soni 134 taga yetgan bo'lsa, 1978-yili O'zbekistonda 3880 ta madaniyat uyi va saroylari faoliyat ko'rsatdi.

Madaniy-ma'rifiy, siyosiy-mafkuraviy ishlar tizimida kutubxonaga alohida e'tibor berildi. Ularga partiya va sovet davlatining siyosatini keng omma orasida targ'ib etishning muhim vositasi sifatida qaraldi. Ushbu kutubxonalar asosan ommaning g'oyaviy-siyosiy ongini oshirish uchun ish olib borar edilar. Shu maqsadda kutubxonalardagi sovet mafkurasiga zid ko'plab nashrlar yo'q qilindi. Natijada, o'zbek milliy madaniyati, tarixi, ma'naviy merosiga oid ko'plab noyob asarlar ilmiy-badiiy muomaladan olib tashlandi.

Madaniy - ma'rifiy ishlarda muzeylarning rolini oshirishga katta ahamiyat berildi. Muzeylar asosan g'oyaviy-mafkuraviy vazifalarni bajarar edilar. Respublikadagi mavjud muzeylar ish faoliyatini takomillashtirish, ularga yagona markazlashgan rahbarlikni tashkil etish maqsadida 1921-yil 20-mayda Turkiston Respublikasida muzey, qadimiy yodgorliklar, san'at, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi (Turkkomstaris, 1927-yilda Uzkomstaris) tashkil etildi. Qo'mitaga respublikadagi barcha tarixiy yodgorliklarni himoya qilish, hisobga olish va undan foydalanish huquqi berildi. Natijada, shu yilning o'zida 52 ta yirik yodgorliklar hisobga olindi, 114045 ta moddiy va madaniy boyliklar muzeylarga to'plandi. 1975-yilda 34 ta davlat muzeyi mavjud bo'lib, shulardan 4 tasi tarixiy 4 ta memorial, 2 san'at va 15 ta o'lkashunoslik muzeylari edi. Xiva (1964), Samarqand (1982), Buxoro (1985)da muzey-qo'riqxonalar tashkil etildi.

Sho'rolar davrida O'zbekiston adabiyoti o'ziga xos tarzda, keskin mafkuraviy tazyiqlar ta'siri ostida rivojlandi.

Sovet davlatining izchil mafkuraviy targ'ibot ishlari natijasida kechagi jadid yozuvchilarining bir qismi sho'rolar tomoniga o'tgan, o'tmaganlar esa, ta'qib qilina boshlandi. Sovet davlati nazoratidagi «Qizil qalam» adabiy tashkiloti (1926-30), Turkiston yo'qsil yozuvchilari uyushmasi hamda bu uyushma viloyat va shahar bo'limlari (1928-32)ning tashkil etilishi, yozuvchilarning «o'ng», «so'l», «yo'lovchi» kabi turli guruhlariga ajratilishi o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta zarba berdi. Mustabid tuzumning insoniyat tarixida misli ko'rilmagan qatag'on siyosati natijasida 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Tavallo, Elbek, G'ulom Zafariy, G'ozir Yunus, Usmon Nosir singari o'nlab shoir va

yozuvchilar yo'q qilib yuborildi. 50-yillarning boshlarida esa, M.Shayxzoda, Shuhrat, Shukrullo, Said Ahmad, M.Ismoilov, Hamid Sulaymon singari yozuvchi va adabiyotshunolar qatag'on etildi.

1920 – yillarda yo'qsil (proletar) adabiyotining barpo etishga qaratilgan sa'y-harakat natijasida shunday nasriy asarlar maydonga keldiki, ular boylar faqat zolimlar, kambag'allar esa, yangi jamiyatni barpo etuvchi ilg'or kuchlar sifatida talqin etila boshladi va xalqning bu har ikkala qatlami o'rtasidagi ziddiyat shu davr adabiyotining asosiy konflikti sifatida tasvirlandi.

Sovet yozuvchilarining 1-qurultoyi (Moskva, 1934)da sotsialistik realizm sovet yozuvchilari uchun yagona ijodiy metod deb e'lon qilingan. Bu metodga ko'ra sovet voqeligini «inqilobiy taraqqiyot»da, ya'ni pardoqlab ko'rsatish va aksincha, «feodal o'tmish»da ro'y bergan voqea-hodisalarni qora bo'yoqlar bilan tasvirlash zarur edi. Ammo shunday davrda ham A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» singari davrning mafkuraviy panjaralarini yorib-parchalab tashlagan romanlari ham yaratildi.

Jadid yozuvchilari boshlab bergan zamonaviy o'zbek adabiy tili va uslubini yaratish jarayoni shu davrda, birinchi navbatda, A.Qodiriy va Cho'lpon, shuningdek Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon va boshqa yozuvchilarning ijodiy mehnatlari bilan ma'lum darajada o'z yakunini topdi. Oybekning «Qutlug' qon» romani 20-30-yillarda o'zbek nasrida olib borilgan ijodiy izlanishlarning sintezi sifatida yuzaga keldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida adabiyot urush mavzusini yoritishga safarbar etildi. Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, Shayxzoda, Uyg'un, Mirtemir va boshqa yozuvchi, shoirlar o'z asarlari bilan front va front orqasida kurashayotgan armiya va hamda dushmanga nisbatan nafrat va g'azab tuyg'ularini uyg'otuvchi, ularni g'alabaga undovchi urushida qahramonona kurashga rag'batlashtiruvchi asarlar yozdilar. Ayniqsa, Oybekning Navoiy romani bu davrning o'lmas asari bo'lib, adib bu asari bilan o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab berdi.

Davlat va partiya urushdan keyingi dastlabki yillarda (1946–48) adabiyot va san'atni tamomila izdan chiqaruvchi, yana 1937–38-yillar qatag'onini yodga soluvchi mafkuraviy qarorlarni chiqardi. Bu qarorlar asosida o'zbek xalq og'zaki ijodining durdonasi-«Alpomish» eposi «feodal davr mafkurasi bilan sug'orilgan», «sovet xalqiga yot asar», deb e'lon qilindi. Aruz vazni she'riyatda sovet davrida ro'y berayotgan «olamshumul o'zgarishlarni ifodalashga qodir bo'lmagan vazn» sifatida quvg'unga uchradi. Urush va urushdan keyingi mashaqqatli yillar tasviri Sh.Rashidovning «Bo'rondan kuchli», I.Rahimning «Ixlos» (1958) romanlarining g'oyaviy yo'nalishini belgilab berdi.

1950 - yillarning oxiri - 1960 - yillarning boshlarida adabiy hayotga E. Vohidov, Yu.Shomansur, B.Boyqobulov, X.Saloh, A.Oripov, M.Jalilov, O.Matchon va boshqa o'nlab yosh shoirlar avlodi kirib keldi. Shu davr o'zbek she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri ijtimoiy adolatsizliklar bilan murosa qila olmagan kenja avlod vakillari (A.Oripov, R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmonlar) o'z asarlarida turli yo'llar bilan millatparvarlik va erkparvarlik g'oyalarini kuyladilar.

1980-yillarda voqelikda ro'y bergan voqea va hodisalar mustabid sovet tuzumining inqirozga yuz tutgani, uning yolg'on ideal va g'oyalarga asoslanganidan darak bera boshladi. Dramaturglar jamiyatdagi ko'ngilsiz hollarga qarshi kurashda komediya janri imkoniyatlaridan samarali foydalandilar. Istiqlool arafasida Sh.Boshbekov «Temir xotin» asari bilan komediyaning kishilarga shunchalik hordiq beradigan, ularni dunyo tashvishlaridan forig' etadigan janr emas,

balki ularni o'ylatadigan, ular orqali jamiyatni haq yo'lga yetaklaydigan vosita ekanini to'la asoslab berdi.

Sovet mustabid tuzumining dastlabki davrida teatr, musiqa, tasviriy san'at va kino san'atida ma'lum ijobiy siljishlar ko'zga tashlandi. Ammo bu san'at turlari kommunistik mafkuraning siyosiy aqidalari tazyiqi asosida «rivoj» topdi. Sovet hukumatining O'zbekistonda san'at turlarini rivojlantirishga bo'lgan intilishini esa, ushbu vosita orqali o'z mafkuraviy maqsadlariga erishish ma'nosida tushunish kerak. Shuning uchun ham o'zbek san'atkorlarining u yoki bu san'at turini rivojlantirishga bo'lgan barcha sa'y-harakatlari sovet hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlab turildi. Yaratilayotgan asarlarning mezoni esa, siyosiy - mafkuraviy qarashlarning darajasi bilan belgilanar edi.

Mustabid sho'ro tuzumi davrida (20-30-yillar) "din-afyun" degan shior bayroq qilib olinib barcha dinlar, jumladan Islom dini, u yaratgan bebaho madaniy obidalar, diniy qadriyatlar inkor etildi. Islom madaniyatining zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tan olinmadi. Odamlarni go'yo diniy sarqitlardan xalos qilish va dahriylik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil qilingan "xudosislar jamiyati"ning minglab faollari milliy urf-odatlarimiz, udum va marosimlarimizga qarshi tashviqotni avj oldirdilar. Yangi «madaniy hayot»ga «sovet turmush tarzi»ga tezroq ko'niktirish uchun ko'p asrlik tarixiy - ma'naviy merosimiz bitilgan alifbo ham shosha-pisha o'zgartirildi va o'zgartirilib turildi. Arab alifbosida asarlar "diniy" deb turli yo'llar bilan yo'q qilishga harakat qilindi. Hatto "hujumkor ateizm" shiori ostida muqaddas madaniy merosimiz-betakror tarixiy yodgorliklar, obidalar qarovsiz qoldi, ko'plab masjid va madrasalar vayron qilindi. Sovet mustabid tuzumi sharoitida madaniyatda siyosiy badiiylik o'rniga ustuvorlik o'rnatildi. Badiiy jamoalar, madaniyat maskanlari, ijodiy uyushmalarning mehnat faoliyati faqat bir narsaga, sovet voqeligini madh etish, uning dunyoda eng nufuzli va adolatli tuzum ekanligini isbotlashga qaratildi.

Bu davrda ham turli mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan o'zbek milliy madaniyatida umumiy rivojlanish bo'ldi. Ammo juda katta intellektual salohiyatga, buyuk madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqi bundan ham ko'ra ko'proq yutuqlarga erishishi mumkin edi. Uzoq yillar davomida madaniyatga sinfiylik, g'oyaviylik, partiyaviylik asosida munosabatda bo'lish milliy madaniyatimizga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Demak, mustamlakachilik va mustabid tuzum hukmronligi davrida o'zbek xalqi madaniyati rivojlanishida umumbashariy taraqqiyot an'alariga mos uzviylikni ko'rishimiz mumkin. Bu davrda xalqimiz madaniy hayotida o'ziga xos betakror mumtoz meros yaratildi. Xalqimiz og'ir sharoitlarda ham madaniy boyliklarni bunyod etish, ijod va kashf etishni davom ettirdi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda."

Asosiy adabiyotlar:

1. Акрамов Ш. ва бошқалар. Ўзбекистоннинг маданий обидалари. -Тошкент.: «Ўзбекистон», 1993 й.
2. Маданият ва маънавият муаммолари.-Тошкент.: «Мерос», 1994 й.

3. Хайруллаев М. Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан.-Тошкент.: «Ўзбекистон», 1995 й.
4. Маврулов А. Маданият ва тафаккур ўзгаришлари. Тошкент.: 2004 й.
5. Абдуллаев М. Маданиятшунослик асослари. “Фарғона”, Тошкент.: 1998 й.
6. Ахмедова Э, Губайдуллин Р.. Культурология. Мировая культура. Ташкент.: -2001 г. “Академия” художеств. Узбекистана.
7. Абдуллаев М., Умаров Э., Очилдиев А., Маданиятшунослик асослари. “Турон-иқбол”, Тошкент.: -2006 й.
8. Очилдиев А. Маданият фалсафаси. “Мухаррир” нашриёти. Тошкент.: -2010й.
9. Бекмуродов М, Юсупова Н. Маданият социологияси. “Янги аср авлоди” Тошкент.: -2010 й.
10. Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик. “Университет”, Тошкент.: -2011й.

